



JAMIYATDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINLARARO BAG'RIKENGLIK MUHITINI MUSTAHKAMLASH

Qo'qon Universiteti

f.f.d (PhD) v.b dotsent

Mavlonov Ilxom Xolmirzayevich

Lingvistika: ingliz tili yo'nalishi 1- kurs magistranti

Zokirjonova Zeboxon Vohidjon qizi

E-mail:zebozokirjonova@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlashning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati yoritilgan. Turli millat va konfessiyalar vakillarining o'zaro hurmat, tenglik va hamjihatlik asosida yashashi jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omili ekani ta'kidlanadi. Shuningdek, bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishda davlat siyosati, huquqiy mexanizmlar, ta'lim-tarbiya tizimi hamda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni tahlil qilinadi. Maqolada millatlararo va dinlararo munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etish yo'llari ham ko'rib chiqilib, ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgan taklif va xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: Millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik jamiyati, diniy konfessiyalar, madaniyatlararo muloqot, tolerantlik, ijtimoiy hamjihatlik, huquqiy madaniyat.

Kirish

Bugungi kunda insoniyat nihoyatda tezkor, murakkab va shiddat bilan o'zgarib borayotgan davrda yashamoqda. XXI asrni bejizga inson tafakkuri, ilmiy-texnik salohiyat va ijodiy imkoniyatlar keng namoyon bo'layotgan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan axborot asri deb atamaymiz. Jamiyat hayotida qisqa vaqt oralig'ida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda



ilmiy-texnikaviy o'zgarishlar inson intellektual salohiyatining mahsuli hisoblanadi. Ayniqsa, ma'naviy sohada yuz berayotgan yangilanishlar kishilardan borliq va ijtimoiy jarayonlarga yangicha falsafiy tafakkur asosida yondashishni talab etmoqda.

2022-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmon imzolandi. Ushbu strategiya hamda uni 2022-yilda amalga oshirishga qaratilgan "yo'l xaritasi" doirasida mamlakatni rivojlantirishning yetti ustuvor yo'nalishi bo'yicha qariyb yuzga yaqin maqsadlarni amalga oshirish belgilangan.

Strategiyaning beshinchi ustuvor yo'nalishi ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va ushbu sohani yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan bo'lib, undagi 74-maqсад jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga bag'ishlangan. Mazkur maqsad doirasida milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada rivojlantirish, millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosati konsepsiyasini izchil amalga oshirish, turli millat vakili bo'lgan yoshlar uchun qulay sharoitlar yaratish, ularda vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati va bag'rikenglikka asoslangan muloqot madaniyatini shakllantirish kabi vazifalar belgilangan.

Shuningdek, millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini yorituvchi xorijiy tillardagi ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni mustahkamlash maqsadida do'stlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish ham muhim vazifalar sirasiga kiritilgan. Bu esa millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni mustahkamlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning ajralmas qismi ekanini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

So'nggi yillarda "millatlararo totuvlik" va "diniy bag'rikenglik" tushunchalariga olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar asosida turlicha yondashuvlar va ta'riflar berilmoqda. Bag'rikenglik tushunchasining



zamonaviy konsepsiyasi nisbatan yaqinda shakllangan bo'lib, uning rivojida YUNESKO muhim rol o'ynagan. Xususan, 1995-yilda qabul qilingan "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi"da bag'rikenglik fuqarolik jamiyatining muhim qadriyati va ijtimoiy norma sifatida e'tirof etilgan. Mazkur hujjat qabul qilingan 16-noyabr sanasi butun dunyoda Xalqaro bag'rikenglik kuni sifatida nishonlanadi.

Bag'rikenglik masalasi bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. "Tolerantlik" tushunchasi dastlab 1953-yilda ingliz olimi P. Medavar tomonidan biologiya sohasida qo'llanilib, u organizmning begona to'qimalarga nisbatan immun tizimi orqali bardoshlilik ko'rsatishini anglatgan.

Sotsiologik ensiklopedik manbalarda tolerantlik (lotincha *tolerare* — chidamoq) o'zga insonlarning yashash tarzi, xatti-harakati, urf-odatlar va his-tuyg'ulariga nisbatan sabr-toqat bilan munosabatda bo'lish, shuningdek, salbiy emotsional holatlarga bardosh bera olish qobiliyati sifatida izohlanadi. "Falsafa qisqacha izohli lug'ati"da esa tolerantlik boshqalarning turmush tarzi, xulq-atvori, fikrlari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan bag'rikenglik va chidamlilik sifatida talqin etiladi.

Tadqiqotchi Z. Husniddinovning fikricha, tolerantlik shaxsiy qarashlardan qat'i nazar, o'zga fikr va munosabatlarni sabr va toqat bilan qabul qila olishni anglatadi. Shu bilan birga, diniy bag'rikenglikning shakllanishi va rivojlanishi masalalari ham ilmiy asosda tahlil qilingan. Ba'zi olimlar tolerantlikni insonning o'zligini erkin ifodalashiga hurmat bilan qarash va uni qanday bo'lsa, shunday qabul qilish sifatida baholaydilar. Ularning ta'kidlashicha, tolerantlik — bu xilma-xillik ichidagi uyg'unlik bo'lib, u jahon madaniyatlari rang-barangligini, shaxsiy o'zlikni namoyon etish shakllari hamda insoniy fazilatlarni e'tirof etishni ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, tolerantlik siyosiy, millatlararo, global, mahalla va oila doirasida namoyon bo'lishi mumkin.

Xulosa



Xulosa qilib aytganda, bag‘rikenglik va tolerantlik jamiyat barqarorligi, ijtimoiy hamjihatlik hamda tinch-totuv hayotni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida turli millat, din va madaniyat vakillarining o‘zaro hurmat va tushunish asosida yashashi jamiyat taraqqiyotining zarur shartiga aylanmoqda. Tolerantlik insonlarning o‘zga fikr, qarash va e’tiqodlarga sabr-toqat bilan munosabatda bo‘lishini taqozo etib, ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Ayniqsa, diniy va millatlararo bag‘rikenglikni mustahkamlash davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanishi, ta’lim-tarbiya jarayonida ushbu qadriyatlarni singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiluvchi ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. **Yangi O‘zbekiston strategiyasi.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. **“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”**, 2022-yil 28-yanvar.
3. YUNESKO. **Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi.** – Parij, 1995.
4. **Falsafa: qisqacha izohli lug‘at.** – Toshkent: Sharq, 2010.
5. **Sotsiologik ensiklopedik lug‘at.** – Toshkent: Fan, 2004.